

ZAMONAVIY SO‘YISH APPARATLARIDA JONLIQLARNI SO‘YISH MASALASI

Xushvaqtov Yusuf Baxtiyor o‘g‘li

“Islomshunoslik” mutaxassisligi magistri, O‘zbekiston xalqaro islam akademiyasi

A R T I C L E I N F O.

Kalit so‘zlar: So‘yish. Jonliq. Zamonaviy apparatlar. So‘yiladigan jonliqlar turlari.

Annatatsiya

Bu maqolada jonliqlarni zamonaviy so‘yish apparatlarida so‘yish qonun qoidalari, shartlari bayon qilingan. Bu masala to‘g‘risida zamonaviy ulamolarning so‘zлari aytilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl> © 2023 LWAB.

Bugungi taraqqiyot va oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabning keskin suratda ortib ketishi hayvonlarni so‘yishda avtomatik qurilmalardan foydalanishga sabab bo‘lmoqda. Shu e’tibordan hozirgi kunda g‘arb davlatlarida bir kunda minglab bosh hayvonni so‘yishga moslashgan kushxonalar paydo bo‘ldi. Bu uskunalar jonliqlarning turiga qarab ishslash uslubi turlicha. Shunday ekan ularning shar’iy hukmini bilish lozim.

So‘yish asboblari. So‘yish asbobi o‘tkir tig‘ bo‘lishi mustahab sanaladi. Lekin so‘yimlikning halol bo‘lishi uchun temir bo‘lsin, tosh bo‘lsin qon oqizadigan har bir o‘tkir narsa joiz. Zero, hadisi sharifda “Tomirni kes va qonni oqiz!” deyilgan. Demak, tomirlarni kesib, qonni oqizadigan narsa bilan so‘yish joiz ekan. Ammo joyida turgan tish, tirnoq va shox bilan so‘yilgan hayvon halol bo‘lmaydi. Chunki bunda hayvon bo‘g‘ib o‘ldirilgan hukmida bo‘lib qoladi. Ammo tish, tirnoq va shox joyidan qo‘porib olingan bo‘lsa, bu asboblar bilan so‘yilgan hayvon makruhlik ila halol bo‘ladi.

Ana shu ma’noda qamishning kesuvchi ustki qismi, toshlarning tig‘ kabi keskir tomoni va shu kabi tig‘ vazifasini bajara oladigan asboblar bilan jonliq so‘yish mumkin¹.

Qassob so‘yadigan hayvonni yotqizishdan oldin pichoqlarini o‘tkirlab olishi mustahab. Yotqizgandan keyin o‘tkirlash makruh. Zero, Shaddod ibn Avs roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisda bunday deyilgan:

ثَنَّا حَفَظْنَاهُمَا عَنْ رَسُولِ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ إِنَّ اللَّهَ كَتَبَ الْإِحْسَانَ عَلَى كُلِّ شَيْءٍ فَإِذَا قَتَلْتُمْ فَأَحْسِنُوا الْقِتْلَةَ وَإِذَا ذَبَحْتُمْ فَأَحْسِنُوا الذَّبْحَ وَلِنُجَاحِ أَحَدْكُمْ شَفَرْتُهُ وَلِنُجَاحِ ذَبِحْتِهِ

“Ikki narsani Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan yodlab oldim, u zot: “Albatta, Alloh har bir narsaga yaxshilikni yozgandir. Agar qatl qilsangiz, qatlni yaxshilab qiling! Agar so‘ysangiz, so‘yishni yaxshilab ado eting! Har biringiz pichog‘ini o‘tkir qilsin va so‘yiladiganni rohatlantirsin!” dedilar”. (Beshovlari rivoyat qilgan). Mazkur hadisda so‘yishga dor bir qancha hukm va odoblar o‘rgatilgan. Jumladan, so‘yish asbobining o‘tkir bo‘lishi ham Islomiy odoblardan ekani aloxida ta’kidlanmoqda.

¹ Zafar Usmon Tahonaviy. Elo as-sunan. –J:16. – Karachi : Idora al-Qur‘on va ulum al-islamiyya, hij.1401. – B.64.

Yirik jonivorlarni so'yish. Zamonaviy jihozlarda yirik jonivorlarni so'yish masalasi birmuncha yengil. Shuni bilish kerakki, bunday jihozlar qassob qo'lidagi tig' o'rnida bo'ladi. Bu borada asosiy ikki narsaga e'tibor qaratish lozim. Birinchi uskunani boshqaradigan shaxsning ishi; ikkinchi so'yishda shart qilingan tomirlarning kesilishidir.

Agar mazkur jihozni ishlatayotgan shaxs musulmon yoki shar'iy so'yishga layoqatli bo'lib, har bir jonvor uchun uskunani ishga tushirishda tasmiya aytsa, birinchi shart bajariladi.

Shuningdek, mazkur jihoz o'ziga o'rnatilgan tig' yordamida shar'iy so'yishda shart qilingan tomirlar: kekirdak, qizilo'ngach va ikki shoh tomirni to'la kessa, ikkinchi shart ham bajarilgan sanaladi. Natijada bu uslubda so'yilgan jonliqning go'shti halol bo'ladi. Aks holda esa uning go'shtini yeb bo'lmaydi.

Tovuq so'yish uslubi. Mazkur masalada bir muncha mushkulliklar bor. Agar ana shu muammolar bartaraf etilsa, ularda so'yilgan jonliqning go'shti halol bo'ladi.

Tovuq so'yish uskunasi ulkan bir avtomat qurilma bo'lib, so'yishning barcha amaliyotlarini bирgina jihozning o'zi bajaradi. Bu shakldagi ayrim jihozlarning bir tarafidan tirik tovuq kirgasilsa, ikkinchi tarafidan tayyor konservalangan holda chiqadi. Bu bo'g'izlash, tozalash, ichki a'zolarni ajratish, go'shtni tozalash, bo'laklarga bo'lish va konservalashdan iborat barcha amalyotlarni bирgina jihoz bajaradi.

Bu jihoz ikki devorga mahkamlangan temir relis, u relisda ko'plab ilgaklar mavjud va ilgaklarning ilmog'i past tarafda. Unga yuzlab tovuqlar kiritiladi va har bit tovuq changaklarga ikki oyog'idan osiladi. Gavdasi esa teskari osilib turadi. Ya'ni, halqum va tumshug'i yer tarafda bo'ladi. Shu tarzda tovuqlar kichikroq ko'rinishdagi sharshara sifat sovuq suv quyiladigan qismga o'tkaziladi. Bundan maqsad tovuqdagi kirlarni ketkazish. Ba'zan bu erdag'i suvga tovuqni gangitadigan va hushidan ketkazadigan tok ulanadi. Keyin bu osilgan tovuqlar pastki qismida juda tez aylanuvchi pichoq o'rnatilgan bo'limga o'tkaziladi. Bu pichoq osilgan tovuqlarning bo'yni to'g'ri keladigan yerga o'rnatilgan. Ilgaklar bu yerdagi aylanuchi pichoq tevaragida o'roqsimon tarzada aylanadi va pichoq ularni bo'ynini kesadi. Keyin ilgaklar bo'yni kesilgan tovuqlar bilan oldinga yuradi va birozdan so'ng ular issiq suv quyilgan qismga o'tadi. Bundan maqsad tovuqlarni patidan tozalash.

Keyin ular bir qancha bosqichar uchun bu jihozda qolishadi. Ularga shar'iy so'yishdan hosil bo'ladigan maqsad bog'liq bo'limgani uchun u amalyotlarni zikr qilmadik. E'tiborli jihat shundaki, bu jihozlar faqatgina istisno hollaridagin to'xtatiladi. Yo'qsa uzluksiz ishlaydi.

Bu uslubda tovuq so'yish shar'iy e'tibordan to'rt jihatdan o'rganiladi:

1. Elektor oqimi bo'lgan sovuq suvdan o'tkazish;
2. Halqumni aylanma pichoqda kesish;
3. Issiq suvdan o'tkazish;
4. Bu mexanik uslubda vojib bo'lgan tasmiya qay tarzda ado etilishi. Elektor oqimi bor sovuq suvdan o'tkazish

Bu borada barcha qushxonalarda elektor tokidan foydalanilmaydi. Agar sovuq suvda tokdan foydalanilmasa, bu shar'iy hukumda tasiri bo'limgan hol sanaladi. Ammo bu o'rinda elektor tokidan foydalanilsa, u odatda hayvonning o'limiga sabab bo'lmaydi. Uni gangitib, hushidan ketkazadi. Hushdan ketkazish agar yurakda qisilishga sabab bo'lsada, odatda hushdan ketkasishsiz so'yilgan jonliqdan chiqadigan miqdorda qon chimaydi. Lekin buning o'zi hayvonni o'laksa qilib qo'ymaydi. Ammo bir hayvonda shu amaliyot sababli o'lim holati yuzaga kelsa, bundan keyin uning halqumi shar'iy yo'l bilan kesilsa ham uni istemol qilish joiz emas.

Bu o'rinda suvning sovuqligi yoki tok kuchi hayvonning o'limiga sabab bo'lmanini isbotlash va jonivor bu amalyotdan o'lik holda chiqmaganini nozik kuzatuv qilish lozim. Shunga qaramay har qanday shubhadan holi bo'lish uchun uni tanovvul qilmagan ma'qulroq.

Halqumni aylanuvchi pichoqda kesish. Aylanuvchi pichoqqa kelsak, u tegirmonga o'xshash, har tarafi o'tkir temir bo'lagidir. U doimo katta tezlikda aylanib turadi. Uning tig'laridan tovuqning halqum tarafi o'tadi va uni avtomatik ravishda kesdi. Odatda u tovuqning halqumini kesib tashlaydi. Lekin gohida changakka osilgan tovuq biror sabab bilan harakatlanadi va bo'yni aylana pichoqqa to'g'ri kelmay qoladi. U tovuq bo'ynini yoki mutloq kesmaydi yo bo'lmasa tomirlar kesilishida shubhaga soluvchi kichik bir qisminigina kesadi. Bu ikki holatda ham shar'iy so'yish hosil bo'lmaydi.

Agar yuqoridagi holdagi so'yilmay tirik qolgan tovuq navbatdagi bosqichda issiq suvga solinsa, u shu suvning issig'ida kuyib yoki issiqning ta'siri bo'lmasada suvda pishirilib o'lishi ehtimoli bor. Bu holda esa hayvon o'limtik bo'lib, uni istemol qilish musulmon kishiga halol bo'lmaydi. Bu turdag'i jonliqning go'shtini istemol qilib bo'lmasligiga imom Muslim rivoyat qilgan quydagi hadis ham hujjat bo'ladi:

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam ov borasida: "Agar o'ljani suvga cho'kkan holatda topsang, uni emagin. Uni suv o'ldirganmi yoki o'qingmi bilmaysan", dedilar.

Mazkur hadis o'lim sababi bo'lgan ishda ikkilanish bo'lsa, unday jonliqning go'shti halol bo'lmasigini ochiq-oydin bayon qilmoqda. Imom Navaviy "Agar ov hayvoni suvda cho'kkan holda topilsa, harom ekaniga hamma ittifoq qilgan", degan.

Tasmiyaning ado qilinishi. Tasmiyani ado qilish bu kabi tarzdagi jihozlarda o'ta mushkul ishdir. Bu borada bir qancha muammolar mavjud.

So'yuvchini ta'yin qilish. Chunki tasmiya aytish so'yish asbobiga emas, so'yuvchi qassobning zimmasiga vojib. Shu sababli bir kishi tasmiya aytib, boshqa kishi jonliqni so'ysa, so'yilgan hayvonning go'shti halol bo'lmaydi². Shunday ekan bir tabiiy savol tug'iladi, bunday mexanik jihozlarda qassob kim?

Bu savolga ehtimol "Kim bu jihozni birinchi ishga tushursa, o'sha kishi qassob deyilishi mumkin. Chunki tehnik jihozlarning amalyotlari, unga nisbati beriladigan aql sohibi bo'lmanligi sabab ish bojarish uni ishga tushiruvchi shaxsga nisbatlanadi. Demak, fe'l jihozdan foydalangan kishiga bog'lanadi. Shunda u bajaruvchi, qassob bo'ladi", deb javob berish mumkindir.

Agar savolga shu tarzda javob berilsa, yana bir muammo vujudga keladi. Ya'ni, bu jihozni ish kunining avvalida ishga tushirgan kishi uni bir martagina ishga tushiradi. Jihoz esa ish kuni davomida minglab tovuqlarni so'yadi. Agar ishga tushiruvchi ish boshlagan paytda bir marotaba tasmiya aytса, u shu kuni so'yilgan hamma tovuq uchun kifoya qiladimi?

Qur'on oyatlarining zohiridan shu narsa ma'lumki, bir necha jonliq ketma-ket so'yilsa, ularning har biriga aloxida tasmiya aytish shart. Shu asosga ko'ra fuqaholar bir qancha hukumlarni istinbot qilishgan:

So'yish mahalliga qaytuvchi shartlarga kelsak, ulardan biri ixtiyoriy so'yishda tasmiya bilan tayin qilinadigan mahaldir. Shunga ko'ra, bir kishi tasmiya aytib, jonliqni so'ysa va shundan so'ng keyin yana boshqa hayvoni so'ysa hamda oldin aytgan tasmiyasi ikkitasiga kifoya qiladi deb o'ylasa, u istemol qilinmaydi. Zabihaning har biriga alohida tasmiya aytish lozim.

Bir kishi qo'yni yotqizib, qo'liga pichoq olib tasmiya aytса va uni qoldirib, boshqa qo'yni so'ysa va tasmiyani qasddan tark qilsa, jonlig'i halol bo'lmaydi.

Agar qassob ikki qo'yni ustma-ust yotkazib, bir tasmiya va bir pichoq tortishda ikkisini ham so'ysa, kifoya. Ya'ni, jonliq halol bo'ladi. Agar qo'lida bir necha chumchuqni ushlab, birini asmiya aytib

² Muhammad Taqiy Usmoniy. Buhus fi qadoya fiqhiiyya muasara. – Damashq: Dor al- Qalam, 2003.

so‘ysa va uning ortidan boshqasini tasmiyasiz so‘ysa, ikkinchisi halol bo‘lmaydi. Ammo bir tasmiya bilan hammasiga bir pichoq tortishda so‘ysa, joiz .

Ammo biz o‘rganayotgan masala bu ikki ko‘rinishga muvofiq emas. Chunki bu misollarda bo‘g‘izlash amalyoti bir harakat bilan amalga oshiriyapti. Zamonaviy jihozlarda tovuq soo‘yishda esa bu harakatlar orasida ma’lum muddat mavjud.

Agar bu mexanik qurilma oldiga bir kishi qo‘yilib, u tovuqlarni so‘yish uchun tasmiya aytib tusa ham bu ko‘rinishda ikkita mushkullik mavjud:

- Tasmiya aytishga masul kishi inson bo‘lib, u gohida har bir jonliq uchun tasmiya aytishdan ojiz. Gohida ma’lum insoniy hojatlar sababli bu masul shaxshlar bir necha daqiqa, hatto soatlab o‘z o‘rinlarini bo‘sh qoldirganiga huvoh bo‘lingan. Bu vaqt oralig‘ida o‘nlab va ba’zan uzlab tovuqlar tasmiyasiz so‘yilib ketadi.
- Agar har bir tovuqqa tasmiya aytilsa ham bu tasmiya shar’an e’tiborga olinmaydi. Chunki tasmiyani aytayotgan shaxsnинг so‘yish amaliyatiga hech qanday aloqasi yo‘q.

Shu va boshqa dalillar asosida alloma Muhammad Taqiy Usmoniy quyidagi xulosaga kelgan³:

1. Ba’zi qushxonalarda tovuq so‘yishdan oldin elektor oqimli sovuq suvgaga tushuriladi. Bu esa tovuq so‘yilishidan oldin o‘lib qolishiga sabab bo‘lish havfi majud. Mutaxssislarning fikriga ko‘ra bu turdagи elektor oqimi 90 % holda tovuqning yuragi to‘xtab qolishiga olib keladi.
2. Aylanma pichoq ko‘p hollarda tovuqni halqumini kessada, ba’zi hollarda uning bo‘yni upichoqqa to‘g‘ri kelmaydi. Shu sababli halqum va boshqa tomirlar kesilmaydi yoki shar’iy talab darajasida bo‘limgan kam qismagina kesiladi.
3. Aylanma pichoqda so‘yganda har bir tovuqqa tasmiya (Allohnning ismi) aytilmaydi. Jihozni ishga tushirayotgan vaqttagi yoki jihoz oldida turgan kishining tasmiyasi shar’iy nuqtai nazardan e’tiborga olinmaydi.
4. Tovuqlar o‘tkaziladigan issiq suv bo‘yni kesilmagan yoki chala kesilgan hayvonning o‘limiga sabab bo‘lishi xavfi katta.⁴

Agar shu muammolar hal qilinsa, mazkur turdagи jihozlarda so‘ylgan tovuqlarning go‘shti halol bo‘ldi .

O‘zbekiston hozirgi kunda tovuqlarning aksariyat qismi qo‘lda so‘yilishi aytildi. Agar ularning har biriga alohida tasmyaiya aytilib, shariat ko‘rsatmalari asosida so‘yilsa, ularni istemol qilish mumkin bo‘ladi.

Chorva molariga kelsak, O‘zbekistonda molni mexanik uskunalar asosida so‘yish tizimini hozirgi kunda takomillashmagan. Zamonaviy qushxonalarda bir necha xil so‘yish turi mavjud. Ko‘plab qassoblar bo‘g‘izlab so‘yishadi.

Ish samaradorligini oshirish yoki boshqa sabablar tufayli jonliq bo‘g‘izlashdan ilgari yuqori kuchlanishli tok, bosh qismiga og‘ir va qattiq jism bilan urish, ikki shohi orasiga harjar urish kabi yo‘llar bilan so‘ylgan jonliqlarning halol bo‘lmay qolish ehtimoli juda yuqori. Musulmon kishi bu yo‘llar bilan so‘ylgan go‘shtni iste’mol qilmasligi lozim. Uning ustiga ayrim ilmiy tadqiqotlar bu yo‘llar bilan so‘ylgan jonivorlar to joni uzulgunga qadar qoni tarkibidagi zararli moddalarini butun tanasi bo‘ylab tarqatishi va ular go‘shtda saqlanib qolishini ko‘rsatgan. Aksincha, oyog‘i bog‘langan va Allohnning ismi aytib so‘ilganda esa bu holatlar kuzatilmagan.

³ Muhammad Taqiy Usmoniy. Buhus fi qadoya fiqhiiyya muasara. – Damashq: Dor al- Qalam, 2003. – B.220.

⁴ Muhammad Taqiy Usmoniy. Buhus fi qadoya fiqhiiyya muasara. – Damashq: Dor al- Qalam, 2003. – B.20.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, musulmon kishi uchun so‘yuvchi va uning e’tiqodi hamda so‘yish uslubi noma’lum bo‘lgan go‘sht va go‘sht mahsulotlarini istemol qilish mutlaqo mumkin emas. Bunga yuqorida keltirilgan hujjat va ulamolarning fikrlari dalil bo‘ladi.

Manba va adabiyotlar:

1. Muhammad Taqiy Usmoniy. Buhus fi qadoya fiqhiiyya muasara. – Damashq: Dor al- Qalam, 2003.
2. Zafar Usmon Tahanaviy. Elo as-sunan. –J:16. – Karachi : Idora al-Qur’on va ulum al-islamiyya, hij.1401.
3. Islomov Z. Codicological Analysis of Manuscripts of “Mukaddamatu-l-Adab” of Mahmud Zamakhshari in the Funds of the World //The Light of Islam. – 2020. – T. 2020. – №. 2. – C. 30-36.
4. Islomov Z. International Islamic Academy of Uzbekistan—a result of the reforms worth to the centuries //The Light of Islam. – 2018. – T. 1. – №. 1.
5. Islomov Z. The role of the international Islamic academy of Uzbekistan in the development of Islamic studies //The Light of Islam. – 2019. – T. 2019. – №. 1. – C. 1.
6. Islomov Z. Source studies analysis of manuscripts of “muqaddimatu-ladab” in foreign archival funds //The Light of Islam. – 2019. – T. 2019. – №. 4. – C. 41.
7. Islomov Z. et al. WRITING DOWN OF HADITHS IN THE VII-VIII CENTURIES: APPROACHES AND METHODS //PSYCHOLOGY AND EDUCATION. – 2021. – T. 58. – №. 1. – C. 5536-5545.
8. Maxsudov D. Развитие исламоведения (корановедения) в Узбекистане: история и современность //Вестник КазНУ, Серия Религиоведение. – 2020. – Т. 21. – №. 1. – С. 60-67.
9. Maxsudov D. Razvitie islamovedenija (koranovedenija) v Uzbekistane: istorija i sovremennost' //Chabaršy. Dintanu serijasy. – 2020. – Т. 21. – №. 1. – С. 60-67.
10. Maxsudov D. The development of transmitted and rational tafsirs //The Light of Islam. – 2019. – T. 2019. – №. 1. – C. 9.
11. Makhsudov D. Muslim world scientists of the temurids period //The Light of Islam. – 2019. – T. 2019. – №. 3. – C. 4.
12. Makhsudov D. Manuscripts of abul barakat al-nasafi's works on furu’Al-Fiqh //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2023. – T. 12. – №. 1. – C. 31-34.
13. Makhsudov D. IX-XV асрларда Мовароуннарда ёзилган тафсирларнинг хусусиятлари //Молодой ученый. – 2020. – №. 14. – С. 311-314.
14. Makhsudov D. R. Mufassirs of Mawarannahr //ISJ Theoretical & Applied Science, 12 (80). – 2019. – C. 539-543.
15. Makhsudov D. R. МУФАССИРЫ МАВЕРАННАХРА В СРЕДНИХ ВЕКАХ //Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 12. – C. 539-543.
16. Makhsudov D. A GENIUS OF THE WORLD //Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 5. – C. 544-548.
17. Ugli A. Z. Z. THE PLACE OF ALIKHANTORA SOGUNIY IN THE HISTORY OF EAST TURKESTAN //Colloquium-journal. – Голопристанський міськрайонний центр занятості, 2020. – №. 24 (76). – С. 32-33.
18. Arslonov Z., Ergashev H. ALIKHANTORA SOGUNIY'S VIEWS ON POLITICAL GOVERNANCE IN EAST TURKESTAN //Студенческий вестник. – 2020. – №. 32-2. – С. 84-85.

19. Zokirjonugli Z. A. Approaches to studying the scientific heritage of Alikhantora Soguni //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2022. – T. 1
20. Zokirjonugli Z. A. APPROACHES TO STUDYING THE SCIENTIFIC HERITAGE OF ALIKHANTORA SOGUNI.
21. Arslonov Z. Z. THE PLACE OF ALIKHANTORA SOGUNI IN THE HISTORY OF EAST TURKESTAN //Colloquium-journal. – Голопристанський міськрайонний центр зайнятості=Голопристанский районный центр занятости, 2020. – №. 24-2. – C. 9-11.